

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.28/2025.27.12.Ped.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

XAMROYEV ALIBEK SHUXRAT O‘G‘LI

**BELBOG‘LI KURASHCHI TALABALARNING TEXNIK-TAKTIK
TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Хамроев Алибек Шухрат о‘g‘li

Belbog‘li kurashchi talabalarning texnik-taktik tayyorgarligini
takomillashtirish.....3

Хамроев Алибек Шухратович

Совершенствование технико-тактической подготовки студентов-борцов на
поясах.....27

Khamroev Alibek Shukhratovich

Improving the technical and tactical training of belt wrestling
students.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.28/2025.27.12.Ped.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

XAMROYEV ALIBEK SHUXRAT O‘G‘LI

**BELBOG‘LI KURASHCHI TALABALARNING TEXNIK-TAKTIK
TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.Phd/Ped7684 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.uzjtsiti.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Qirg‘izboyev Ma’rufjon Mo‘ydinovich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	Tashnazarov Djasur Yuldashovich pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent Artiqov Zoxidjon Sabirovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.28/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____-soat dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100202, Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Yangi O‘zbekiston ko‘chasi, Olimpiya shaharchasi. Tel: +99871-242-30-87, Veb-sayt: <https://uzjtsiti.uz/>, e-mail: jtsiti@sport.uz. O‘zbekiston davlat sport akademiyasi “Ma’muriy” bino 1-qavat, 146-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat sport akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100202, Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Yangi O‘zbekiston ko‘chasi, Olimpiya shaharchasi. Tel: +99871-242-30-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____ da _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

A.I.Talipdjanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), professor

D.Y.Egamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, pedagogika
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O.E.Hayitov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida soʻnggi yillarda oʻtkazilib kelinayotgan Osiyo oʻyinlari, Jahon va Osiyo chempionatlari hamda qator anʼanaviy xalqaro turnirlarda sport natijalarining uzluksiz oʻsib borishi, raqobatni yanada keskinlashishiga olib kelmoqda. Zamonaviy sport amaliyotida yuksak sport natijalariga erishish maqsadida yuklamalar hajmi va shiddatini meʼyordan oshirish koʻngilsiz oqibatlar, hatto shikastlanishlarga olib kelishi mutaxassis olimlar tomonidan taʼkidlanib kelinmoqda. Bu borada bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan boʻlsa-da, manbalarda belbogʻli kurashchi talabalarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish va individual xususiyatlarni inobatga olish orqali tayyorgarlik jarayonini amalga oshirish texnologiyasi ilmiy jihatdan yetarlicha oʻrganilmagan boʻlib, mutaxassislar tomonidan ilmiy asoslangan izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

Jahon miqyosida yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, ularning sport formasini, texnik-taktik tayyorgarligini, jismoniy va funksional imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda sport mahoratini oshirishga, sportchining sogʻligini saqlash, uning bioenergetik imkoniyatlarini kengaytirishga moʻljallangan tabaqalashtirilgan mashqlar va yangi metodlarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etishga urgʻu berilmoqda. Biroq, mutaxassislar tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotlardan maʼlum boʻldiki, shiddatli yuklamalarga bardosh berish, harakatlar koʻlamini kengaytirish, funksional zaxiralar hajmini oshirish, yuklamalar davomida va yakunida toliqish alomatlarini bartaraf etish va ish qobiliyatini tiklashda muhim rol oʻynovchi individual imkoniyatlarni inobatga olish va baholashga qaratilgan muammolar mavjudligi yuzaga kelmoqda.

Respublikimizda soʻngi yillarda milliy sport turlarini rivojlantirish va uni xalqaro sport tizimiga integratsiyalash muhim hisoblanadi. “Kurash milliy sport turini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish, uning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish va xorijiy mamlakatlarda yanada keng targʻib qilish, shuningdek, kurashni rivojlantirish va ommalashtirish boʻyicha faoliyatni tizimli qoʻllab-quvvatlashni tashkil qilish” vazifalari belgilab berilgan¹. Xususan, belbogʻli kurashning jahon sport maydonida tan olinish jarayoni, ushbu sport turining oʻziga xos texnik-taktik xususiyatlari va zamonaviy musobaqa standartlariga mos keladigan tayyorgarlik modellarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Chunki belbogʻli kurashda gʻalabaga erishish nafaqat sportchining jismoniy tayyorgarligiga, balki uning texnik usullarni aniq va tez bajarishi, taktik vaziyatlarni toʻgʻri baholashi, raqib harakatlariga moslashishi va musobaqa davomida oqilona qaror qabul qila olishiga ham bevosita bogʻliqdir. Shunday sharoitda belbogʻli kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini chuqur ilmiy asoslangan holda oʻrganish va takomillashtirish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda PQ-450-son “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-oktyabrdagi PQ-3306-son “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 20-dekabrdagi PQ-450-son “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga doir boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlat ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlari doirasiga mos ravishda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda sportchilarni nufuzli musobaqalarga tayyorlash muammolari jismoniy tarbiya va sport nazariyasi sohasidagi yetakchi olimlar F.A. Kerimov, E.T.Raxmanov, N.A. Tastanov shuningdek belbog‘li kurash bo‘yicha mutaxassislar Z.S.Artaqov, M.M.Qirg‘izboev, Sh.S.Mirzanov, Sh.Mirzaqulovning ilmiy ishlarida yoritilgan².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlari tomonidan kurash sport turi bo‘yicha sportchilarni tayyorlash hamda kurashchilarning individual texnik-taktik tayyorgarligini amalga oshirish bo‘yicha A.B.Taymazov, G.G. Voloshin, M.A.Godik, V.M.Zatsiorskiy³ ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Xorijiy olimlar tomonidan kurashchilarning tayyorgarligini takomillashtirish, kurashchilarni tayyorlashda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, mashg‘ulotlarda kurashchilarni texnik-taktik, jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha R.S.Lloyd, D.D.Curby, J.H.Wilmore, D.L.Costill⁴ bir qator tadqiqotlar olib borishgan.

Adabiyotlar tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki, belbog‘li kurash bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil qilishda, uning barcha komponentlari bilan bir

² Керимов Ф.А. Юсупов Н.М. Кураш. / Дарслик. Т. 2003. — Б. 25-26.; Тастанов Н.А. Кураш турлари назарияси ва услубияти. / Дарслик; Мирзанов Ш.С. Методика силовой подготовки юных белбогли курашистов. Ж.: “Фан-спортга” 2014. Т. № 3. Б.3-4.; Mirzaqulov Sh.A. Yosh belbog‘li kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi. //Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman “Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiya-tining zamonaviy muammolari”, II qism. Toshkent, 2015. — B. 83-84.; Tastanov N.A. Theory and methodology of wrestling/ Textbook. “Sanostandar” Tashkent — 2017. P. 193-194.; Artaqov Z.S. Belbog‘li kurashda statik va dinamik kuchlanish davomida muvozanat saqlash funksiyasini shakllantirish metodikasi / Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Avtoreferat., Ch., 2018. — 26 b.; Qirg‘izboev M.M. Belbog‘li kurashchilarda bo‘g‘imlararo egiluvchan-likning ustuvorligi va uni ixtisoslashtirilgan tartibda rivojlantirish metodikasi./Ped.fanlari nomzodlik diss.avtoref. T. 2021. — 46 b.; Raxmanov E.T. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiya-ti. O‘quv qo‘llanma // “O‘zkitobsavdonashriyot” NMIU, Toshkent 2023. — 260 b.

³ Годик М.А. Физическая подготовка футболистов. М.: Терра-Спорт 2006. С 41-45.; Волошин Г.Г. Особенности предсоревновательной подготовки борцов в условиях учебного заведения системы МВД России (на примере борьбы и самбо). Педагогика. Современная наука № 2. 2011. С 39-42.; А.Таймазов “Индивидуализация технико-тактической подготовки спортсменов высокого класса в современной вольная борьба”, монография, Санкт-петербург – 2017, 132 с.; Заицорский В. М. Физические качества спортсмена : основы теории и методики воспитания. —М. : Спорт 2019. — 200 с.

⁴ Lloyd R.S. Strength and conditioning for young athletes: Science and application. London; New York: Routledge 2014. — 232 p.; Curby D. Overview of the international network of wrestling researchers (INWR) and a vision for what we can do to advance the status of wrestling /.; Proceedings of the Conference’s FILA.- Moskow: Russ-Olimp 2010.- P. 8-9.; Wilmore J.H. and Costill D.L. Physiology of sport and yexercise. Champaign IL: Human Kinetics 2004.- 726 p.

qatorida, shunday bir holat borki, kurashchi bellashuv vaqtida qulay fursat tugʻilishi bilan texnik-taktik tayyorgarligini ishga solib, raqib ustidan ustunlikka erishishga intiladi. Bunday tayyorgarlik yaxshi oʻzlashtirilmaganligi sababli polvonlarimiz nufuzli musobaqalarda gʻalabaga erisha olmayaptilar. Shu bois, aynan texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirish, mashgʻulotlarda individual xususiyatlarni inobatga olib texnik-taktik tayyorgarlikni olib borish muammosi bugungi kunda dolzarb hamda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Mazkur dissertatsiya Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Yuqori malakali belbogʻli kurashchilar tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi individual yondashuv asosida belbogʻli kurashchi talabalarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

belbogʻli kurashchi talabalarning vazn toifalari boʻyicha texnik usullarni bajarish samaradorligini oshirishga qaratilgan uslubiyatni takomillashtirish;

belbogʻli kurashchi talabalarning individual xususiyatlari boʻyicha texnik-taktik komponentlarini musobaqa faoliyatiga samarali tayyorlash mexanizmini ishlab chiqish;

belbogʻli kurashchi talabalarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlarini vazn toifalariga mos ravishda ishlab chiqish;

belbogʻli kurashchi talabalarning musobaqa natijadorligini oshirish maqsadida turli mikrosikllarni mashgʻulot jarayonida qoʻllash orqali texnik-taktik harakatlar kombinatsiyasini bajarish imkoniyatlarini oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Renessans taʼlim universiteti, Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Fargʻona filiali belbogʻli kurashchi talabalarining oʻquv mashgʻulot jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini belbogʻli kurashchi talabalarning oʻquv-mashgʻulot jarayoni hamda musobaqalarda qoʻllanilgan vosita va usullar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatishlar, soʻrovnoma, pedagogik nazorat testlari, pedagogik tajriba, matematik statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

belbogʻli kurashchi talabalarning turli vazn (yengil, oʻrta, ogʻir) toifalari boʻyicha musobaqa sharoitlarida usullarni sifatli bajarish, raqibning hujumlariga qarshi samarali himoyalanih va qarshi hujum qilish (raqibni oldindan koʻtarib yonboshdan oshirib tashlash va raqibni ikki tizza yordamida koʻtarib oʻng tomonga qaytarib tashlash kabi) harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks modelini ishlab chiqish hisobiga texnik-taktik tayyorgarligi rivojlantirilgan;

belbogʻli kurashchi talabalarning mashgʻulotlarini maqsadli tashkillashtirish uchun texnik-taktik tayyorgarlikni ustuvor yoʻnalishlariga koʻra (moslashtirilgan va differensial yondashuv asosida) yuklamalarning hajm va shiddatini individual

tayyorgarlik bo'yicha me'yorlash hisobiga mikrosikl tuzilishini oqilona rejalashtirish uslubiyatlari yaxshilangan;

belbog'li kurashchi talabalarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda tortuvchi, bazaviy, musobaqa oldi mezosikl bloklarini mashg'ulotlarda maxsus tayyorlov va individual mashqlarni kombinatsion usulda qo'llash hisobiga texnik-taktik harakatlarni bajarish samaradorligi oshirilgan;

belbog'li kurashchi talabalarning orqa, yelka, bilak, qo'l va oyoq mushaklarini mustahkamlashga hamda texnika samaradorligini (sharikni ko'targan holda o'ng va chap tomonlarga aylanish) oshirishga mo'ljallangan maxsus mashqlarni bajarishda yuklama shiddati hamda dam olish intervallarini vazn toifalariga nisbatan me'yorlash hisobiga musobaqalarda texnik-taktik harakatlarni qo'llash imkoniyatlari oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli vazn toifasidagi belbog'li kurashchi talabalarning texnik usullarini toifalari bo'yicha takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan;

belbog'li kurashchi talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

belbog'li kurashchi talabalarning vazn toifalari bo'yicha jismoniy tayyorgarlik takomillashtirishga yo'naltirilgan mashqlar arsenali ishlab chiqilgan;

belbog'li kurashchi talabalarning musobaqa jarayoni amalga oshiradigan texnik-taktik harakatlar kombinatsiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asoslanganligi bir qator metodologik, tashkiliy va amaliy-tajriba omillari bilan ta'minlanadi. Avvalo, u tadqiqotning nazariy asoslari bilan belgilanadi. Ishda qo'llanilgan yondashuv, belbog'li kurash nazariyasi va metodikasi yo'nalishidagi xorijiy va mamlakatimiz olimlarining fikr mulohazalariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir — birini to'ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, tahlil hamda tadqiqot vazifasining son va sifat jihatidan ta'minlanganligi, laboratoriya sharoitidagi tadqiqot natijalariga asoslanganligi, tajriba sinov ishlarining reprezentivligi olingan natijalarini hisoblashda matematik — statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlab chiqilganligi, natijalarni vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda belbog'li kurashchi talabalar tomonidan qo'llaniladigan texnik-taktik harakatlarni o'rgatishning zamonaviy uslubiy yondashuvlari ishlab chiqildi hamda ular umumiy va maxsus tayyorgarlik jarayonlarini maqsadli takomillashtirishga yo'naltirilgan, shuningdek ushbu ishda texnik-taktik tayyorgarlikning o'zaro bog'liq komponentlari, ularning yuklama hajmi va intensivligi, harakatlarni bajarish tezligi va aniqligi bo'yicha ilmiy asoslangan mezonlar ishlab chiqildi va tadqiqot jarayonida belbog'li kurashchilarning musobaqa faoliyatida samarali qo'llaniladigan usullarni aniqlash, ularning texnik-taktik tuzilmasini tahlil qilish hamda o'quv-mashg'ulot jarayonida optimallashtirish imkoniyatlari ilmiy asoslandi hamda olingan natijalar sport

nazariyasi va metodikasi sohasida yangi ilmiy bilimlarni boyitadi hamda milliy kurash turlarining o'quv-uslubiy bazasini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa belbog'li kurashchi talabalar uchun umumiy va maxsus tayyorgarlikda texnik-taktik harakatlarni takomillashtirishga qaratilgan rivojlantiruvchi va yaqinlashtiruvchi mashqlar kompleksini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish orqali namoyon bo'ladi. Ushbu mashqlar majmuasi musobaqa sharoitlariga yaqinlashtirilgan vaziyatlarda texnik-taktik qarorlar qabul qilish tezligi, usullarni bajarish aniqligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ishlab chiqilgan tavsiyalar trenerlar va murabbiylar tomonidan amaliyotga tatbiq etilishi mumkin bo'lib, ular mashg'ulotlarni rejalashtirish, yuklama hajmini tartibga solish, sportchilarni bosqichma-bosqich tayyorlash va musobaqaga optimal holatda yetkazishda muhim metodik vosita hisoblanadi. Natijalar oliy ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi o'quv dasturlariga, sport maktablari hamda kurash klublarining tayyorgarlik tizimiga bevosita integratsiya qilinishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Belbog'li kurashchi talabalarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

belbog'li kurashchi talabalarning turli vazn (yengil, o'rta, og'ir) toifalari bo'yicha musobaqa sharoitlarida usullarni sifatli bajarish, raqibning hujumlariga qarshi samarali himoyalash va qarshi hujum qilish (raqibni oldindan ko'tarib yonboshdan oshirib tashlash va raqibni ikki tizza yordamida ko'tarib o'ng tomonga qaytarib tashlash kabi) harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks modelini ishlab chiqish ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar Renessans ta'lim universiteti belbog'li kurashchi talabalarning darsdan tashqari mashg'ulotlari tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 11-aprel 02-16/3608-son ma'lumotnomasi). Natijada, belbog'li kurashchi talabalarning texnik usullarni bajarish samaradorligi 22,8 % ga yaxshilangan;

belbog'li kurashchi talabalarning mashg'ulotlarini maqsadli tashkillashtirish uchun texnik-taktik tayyorgarlikni ustuvor yo'nalishlariga ko'ra (moslashtirilgan va differensial yondashuv asosida) yuklamalarning hajm va shiddatini individual tayyorgarlik bo'yicha me'yorlash hisobiga mikrosikl tuzilishini oqilona rejalashtirish mexanizmini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali belbog'li kurashchi talabalarining darsdan tashqari sport mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 11-aprel 02-16/3608-son ma'lumotnomasi). Natijada, belbog'li kurashchi talabalarning texnik usullarni bajarish samaradorligi va taktik harakatlarni amalga oshirish qobiliyati 21,7 % ga oshirishga erishilgan;

belbog'li kurashchi talabalarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda tortuvchi, bazaviy, musobaqa oldi mezosikl bloklarini mashg'ulotlarda maxsus tayyorlov va individual mashqlarni kombinatsion usulda qo'llash uslubiyatini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti belbog'li kurashchi talabalariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 11-aprel 02-16/3608-son

ma'lumotnomasi). Natijada, belbog'li kurashchi talabalarning texnik-taktik tayyorgarligi 24,8 % yaxshilashga erishilgan.

belbog'li kurashchi talabalarning orqa, yelka, bilak, qo'l va oyoq mushaklarini mustahkamlashga hamda texnika samaradorligini (sherikni ko'targan holda o'ng va chap tomonlarga aylanish) oshirishga mo'ljallangan maxsus mashqlarni bajarishda yuklama shiddati hamda dam olish intervallarini vazn toifalariga nisbatan me'yorlash bo'yicha taklif va tavsiyalar "Sport mahoratini takomillashtirish bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (belbog'li kurash) nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektorining 2025-yil 2-iyuldagi 305-I/Ch-son buyrug'iga asosan O'Q-0000211 raqamli guvohnoma). Natijada belbog'li kurashchi talabalarning O'z vazniga teng raqibni ko'krakdan oshirib tashlash texnik usulini bajarish samaradorligi 15,7 % ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda, muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 3 ta maqola (2 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish va to'rtta bobdan iborat bo'lib, 135 sahifali matn, 30 ta rasm, 19 ta jadval, xotima, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning zarurati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, tadqiqotdan olingan natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati hamda ularning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **Belbog'li kurash sport turida texnik-taktik tayyorgarlikning o'rni va baholash muammolari bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish** deb nomlangan birinchi bobi belbog'li kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligining umumiy tavsifi va uning tuzilishi haqida zamonaviy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Belbog'li kurashchi talabalarning texnik usullarini hamda taktik harakatlar kombinatsiyasini takomillashtirish xususiyatlari, texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirish uslubiyati va belbog'li kurash sport turiga xos mashqlarni qo'llashning ahamiyati va ilmiy-uslubiy mohiyati mutaxassis-olimlarning fikr-mulohazalari hamda xulosalari asosida ochib berilgan.

Z.S. Artiqov, M.M. Qirg'izboyev, F.A. Kerimov, E.T.Raxmanov, Sh.S. Mirzanov, Sh.A. Mirzaqulov, N.A.Tastanov kabi olimlar kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha o'z fikrlarini aytib o'tishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlari tomonidan kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish hamda individual tayyorgarlikni amalga oshirish bo'yicha bir qator muaxassislar tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan A.B.Taymazov, V.F.Boyko, G.V.Danko, A.V.Lebedev va V.A.Rodionov o'zining tadqiqotlarida kurash sport turlarida texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirish usullari haqida fikr bildirishgan.

Xorijiy olimlar tomonidan kurashchilarning tayyorgarligini takomillashtirish, kurashchilarni tayyorlashda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, mashg'ulotlarda kurashchilarni texnik-taktik, jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha M.A.Coh, P.P.Bora, M.S.Jones, O.A.Miladinov, H.S.Makaruk bir qator tadqiqotlar olib borishgan.

Dissertatsiyaning **Tadqiqot uslublari va uning tashkil qilinishi** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili, anketa-so'rovnoma, pedagogik kuzatuv, pedagogik nazorat: jismoniy holatni baholash, pedagogik tajribalar, tibbiy-fiziologik uslub, matematik statistik uslublari, tadqiqotning tashkil qilinishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqotlar 2022-2025 yillar mobaynida uch bosqichda amalga oshirildi. U quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi (ilmiy izlanish tajriba va yakuniy).

Birinchi, izlanish bosqichida (2022-2023 yy.) tadqiqot muammolari bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va belbog'li kurash bo'yicha murabbiylarning amaliy tajribalari o'rganildi hamda tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlandi.


Ikkinchi, tajriba-tahliliy bosqichda (2023-2024 yy) tadqiqot usullari o'zlashtirildi, belbog'li kurashchi talabalarning texnik-taktik tayyorgarligi, yoshi va individual xususiyatlari o'rganildi, texnik-taktik tayyorgarlikni amalga oshirishdagi muammolar aniqlandi va ularni yo'q qilishga qaratilgan pedagogik ta'sir choralari ishlab chiqildi.

Uchinchi, umumlashtiruvchi bosqichi 2024-2025 yillarda o'tkazildi. Mazkur bosqichda pedagogik tajriba olib borildi, belbog'li kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirishning samarali vositalari, shakllari va uslublari aniqlandi va texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirish uslublari ishlab chiqildi, texnik usullarni qo'llash tamoyillari va o'qitish uslublari belgilandi. Tadqiqotning uchinchi bosqichida bir qator pedagogik tajribalar o'tkazildi (o'rnatish, shakllantirish, taqqoslash va baholash) — ular O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. Tadqiqot va tajriba ishlar jarayonida texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan uslubiyatning samaradorligi sinovdan o'tkazildi, belbog'li kurashchi talabalarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishdagi uslublari sinovdan o'tkazildi.

Dissertatsiyaning **Belbog'li kurashchi talabalarning mashg'ulot va musobaqa faoliyatida texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish**

uslubiyati deb nomlangan uchinchi bobida belbog‘li kurashchi talabalarning texnik-taktik tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil etish, mashg‘ulotlarni rejalashtirish va amaliyotga tatbiq etishning uslubiy asoslari yoritilgan. Tadqiqot doirasida mavjud mashg‘ulot tizimi chuqur tahlil qilinib, uning mazmuni, yuklama tuzilmasi, davriyligi va sportchilarning individual xususiyatlariga mosligi o‘rganiladi. Shuningdek, yangi ishlab chiqilgan texnik usullarni bajarishni takomillashtirish modeli hamda belbog‘li kurashchi talabalarning texnik-taktik tayyorgarlikning ustuvor yo‘nalishlariga ko‘ra yuklamalarning hajm va shiddatini individual xususiyatlar bo‘yicha tashkil qilish mexanizmi hamda mezosikl bloklari kombinatsiyasi orqali belbog‘li kurashchi talabalarni texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish uslubiyati asosida tashkil etilgan mashg‘ulot jarayonining samaradorlik ko‘rsatkichlari amaldagi an‘anaviy yondashuv bilan taqqoslangan.

Biz belbog‘li kurashchi talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi aniqlash maqsadida nazorat va tajriba guruhidagi belbog‘li kurashchi talabalar bilan sinov mashqlarini o‘tkazdik. Ushbu sinov mashqlari yordamida nazorat va tajriba guruhidagi belbog‘li kurashchi talabalarning jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari aniqlandi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Tadqiqotdan boshida nazorat va tajriba guruhidagi belbog‘li kurashchi talabalarning balandlikka sakrash ko‘rsatkichlari dinamikasi (15 s. davomida)

Turli vazn toifasidagi belbog‘li kurashchi talabalarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan sinov mashqlariga ko‘ra 10 soniya davomida balandlikka sakrash (marta) NG dagi yengil vazn toifasidagi talabalarda 9,04 ta, o‘rta vazn toifasidagi talabalarda 8,13 ta, og‘ir vazn toifasidagi talabalarda 7,43 ta tashkil qildi. Shuningdek ushbu mashqlar TG dagi yengil vazn toifasidagi belbog‘li kurashchi talabalarda 8,79 ta, o‘rta vazn toifasidagi talabalarda 7,94 ta, og‘ir vazn toifasidagi talabalarda 7,24 tani tashkil qildi. NG va TG belbog‘li kurashchi talabalarda ushbu mashqlarni bajarish ko‘rsatkichlari turli xil, shuningdek vazn toifasi bo‘yicha ham farqlar aniqlandi. NG va TG belbog‘li kurashchi talabalarda ushbu mashqlarni bajarish ko‘rsatkichlari turli xil, shuningdek vazn toifasi bo‘yicha ham farqlar


aniqlandi. Biz tomonimizdan belbog‘li kurashchi talabalarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra shuni ta’kidlash mumkinki belbog‘li kurashchilarning tayyorgarlik jarayonida sportchilarning individual xususiyatlarini, vazn toifasi hamda funksional holati inobatga olish zarur. Sportchilarning vazn toifasi va funksional holatini inobatga olgan holda, individual dasturlar ishlab chiqish kerak. Og‘ir vazn toifasidagi sportchilar uchun mashqlarni kuch yuklamasi va texnikaga mos ravishda optimallashtirish tavsiya etiladi. O‘rta va og‘ir vazn toifasidagi sportchilar uchun tezkorlik va chaqqonlik mashqlarini ko‘proq joriy etish, ular uchun maxsus tezlikka qaratilgan dasturlar ishlab chiqish lozim. Shuningdek biz olib borilgan tadqiqotlar davomida NG va TGga kiritilgan belbog‘li kurashchi talabalarning texnik usullarni bajarish ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida turli vazn toifasidagi belbog‘li kurashchi talabalarning o‘z vazniga teng raqibni tizza yordamida ko‘tarib tashlash va o‘z vazniga teng raqibni ko‘krakdan oshirib tashlash samaradorligini muvofiq me‘yoriy sinovlar yordamida aniqlashga e’tibor qaratdik (2-rasmga qarang).



2-rasm. Tadqiqotdan boshida nazorat va tajriba guruhidagi belbog‘li kurashchi talabalarning raqibni 5 marta chap tomonga ko‘krakdan oshirib tashlash usulini bajarish samaradorligi (s.)


Raqibni 5 marta chap tomonga ko‘krakdan oshirib tashlash vaqti NG yengil vazn toifasida 18,73 soniya, o‘rta vazn toifasida 20,52 soniya, og‘ir vazn toifasida 23,43 soniya, TG yengil vazn toifasida 18,98 soniya, o‘rta vaznda 20,87 soniya, og‘ir vaznda 23,98 soniyani tashkil qildi. Olib borilgan tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki yengil vazn toifasidagi talabalar texnik harakatlarni tez va aniqlik bilan bajargan bo‘lsa, o‘rta va og‘ir vazn toifalaridagi sportchilarda bu ko‘rsatkichlar nisbatan past bo‘lib, ular ko‘proq vaqt sarflashgan. Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra texnik usulni bajarish vaqtidagi farqlar vazn toifalari bo‘yicha hamda TG belbog‘li kurashchi talabalar NG belbog‘li kurashchi talabalardan barcha vazn toifalari bo‘yicha ko‘proq vaqt sarflashgan.

Belbog‘li kurashchi talabalarning musobaqalarda yuqori natijalarga erishishini ta’minlash uchun mukammal texnik-taktik tayyorgarlik muhim hisoblanadi. Shuningdek musobaqalarda mukammal texnik usullar orqali raqib ustidan g‘alabaga erishiladi. Biz belbog‘li kurashchilarning vazn toifalariga ko‘ra texnik-taktik usullarini takomillashtirish modelini ishlab chiqdik. Ushbu model belbog‘li kurashchi talabalarning texnik-taktik tayyorgarligini bosqichma-bosqich takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u sportchilarning bellashuv jarayonida samarali harakatlanishi, raqibning hujumlariga moslashishi va o‘z texnik repertuarini rivojlantirishiga xizmat qiladi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Turli vazn toifasidagi belbog'li kurashchi talabalarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish modeli

Ushbu modelda avvalo, texnik tayyorgarlikning bosqichma-bosqich shakllanishi, sportchining yoshi, vazni va jismoniy salohiyatiga mos ravishda harakatlarning o'zlashtirilish darajasini hisobga olishga asoslanadi. Modelda har bir texnik usulni o'zlashtirish jarayonida sportchining funksional holati (kuch, tezlik, muvozanat, koordinatsiya) inobatga olinadi, bu esa harakat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Belbog'li kurashchi talabalarning jismoniy salohiyati (massasi, balansi, chaqqonligi) texnik usullarni qo'llashda muhim omil bo'lganligi sababli, modelda ular yengil, o'rta va og'ir vazn toifalariga ajratilgan. Shuningdek har bitta texnik usulni bajarishni takomillashtirish hamda texnik usullarga qarshi himoya, qarshi hujum harakatlari va kombinatsion taktik harakatlar ham ishlab chiqilgan. Ushbu modelning birinchi bosqichi texnik tayyorgarlikni vazn toifalariga moslashtirish. Ushbu bosqichda sportchilar yengil, o'rta va og'ir vazn toifalariga ajratiladi hamda vazn toifalariga ko'ra texnik usullar tanlab olinadi. Yengil vazn toifasi uchun chaqqonlik, tezkorlik va harakat trayektoriyasining tezkorligi ustuvor. Shu sababli ular uchun ko'proq past markazli va yuqori tezlikdagi harakatlar – masalan, tizza yordamida ko'tarib tashlash yoki qaytarma, yonbosh usullari mos keladi. O'rta vazn toifasidagi belbog'li kurashchi talabalar esa kuch va tezlik uyg'unligini saqlagan holda texnik usullarni bajarishga harakat qiladi. Og'ir vazn toifasidagi belbog'li kurashchi talabalar esa barqarorlik va kuchga tayanib, tizza yordamida ko'tarib tashlash, bosib qo'yish kabi texnikalarni qo'llaydi. Ushbu modelning ikkinchi bosqichi mashg'ulotlarda texnik usullarni takomillashtirish. Bu bosqichda texnik usullarni o'rganish va mustahkamlashga urg'u beriladi. Bu bosqichda talabalar texnik usullarni chuqur o'zlashtiradi. Harakatlarni faqat o'rganish emas, balki ularni avtomatik bajarish darajasiga olib chiqish maqsad qilib olinadi. Bu orqali ular harakatni ongli tarzda, ya'ni har bir qadamni tushunib bajaradi. Vaqt o'tgan sari, bu harakatlar tezroq, aniqlik bilan va avtomatlashgan holda bajarish jarayoni shakllanadi. Uchinchi bosqich: Bellashuv sharoitida texnik usullarni takomillashtirish. Bu bosqichda belbog'li kurashchi talaba mashg'ulotda o'rganilgan texnik-taktik harakatlarni raqibga qarshi, bevosita kurash holatida qo'llaydi. Bu jarayonda belbog'li kurashchi talabalar texnikani qayerda, qachon va qanday ishlatishni to'g'ri anglab, shunga mos harakat qilish malakasi shakllanadi. Ushbu jarayonda texnik usullarga qarshi himoyalaniq, qarshi hujum qilish, shuningdek, o'ng va chap tomonga texnik usullarni bajarish ustida ishlanadi. Bu bosqich sportchilarga real musobaqalarda raqib harakatlariga tez va mos ravishda javob qaytarish imkonini beradi. Taktik tafakkurning rivojlanishi va texnik usullarni raqibga moslashtirish orqali kurashchilarning musobaqadagi samaradorligi oshadi. To'rtinchi bosqich taktik tafakkurning rivojlanishi va texnik usullarni raqibga moslashtirish orqali kurashchilarning musobaqadagi samaradorligi oshadi. Himoya va qarshi hujum harakatlarini shakllantirish hamda takomillashtirish bosqichida – taktik fikrlash va bellashuvlarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish amalga oshiriladi. Shuningdek biz belbog'li kurashchi talabalarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida belbog'li kurashchi talabalarning texnik-taktik tayyorgarlikning ustuvor yo'nalishlariga ko'ra yuklamalarning hajm va shiddatini individual xususiyatlar bo'yicha tashkil qilish mexanizmini ishlab chiqdik. Belbog'li kurashchi talabalarning individual tayyorgarligi-bu sportchining shaxsiy xususiyatlari, jismoniy va texnik-taktik darajasini inobatga olgan holda rejalashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulot jarayonidir (4-rasmga qarang).




4-rasm. Belbogʻli kurashchi talbalarning texnik-taktik tayyorgarlikning ustuvor yoʻnalishlariga koʻra yuklamalarning hajm va shiddatini individual xususiyatlar boʻyicha tashkil qilish mexanizmi

Individual tayyorgarlik sportchining vazn toifasi, yoshi, malakasi va musobaqaga tayyorgarlik darajasiga qarab tuziladi. Belbog‘li kurashchi talabalarning individual tayyorgarligi murabbiy va sportchi o‘rtasidagi aniq rejalashtirilgan, tizimli va individual yondashuvga asoslangan bo‘lib, sportchining individual xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va unga mos tayyorgarlik dasturini ishlab chiqishni talab etadigan jarayon hisoblanadi. Ushbu mexanizm belbog‘li kurashchi talabalarning sport tayyorgarligini individuallashtirish orqali texnik-taktik va jismoniy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu mexanizm 4 ta bosqichdan iborat; birinchi bosqich tahlil bosqichi, ikkinchi bosqich rejalashtirish bosqichi, uchinchi bosqich mashg‘ulot jarayoni bosqichi, to‘rtinchi bosqich nazorat qilish va tuzatish bosqichi.

Tahlil qilish bosqichi-belbog‘li kurashchi talabalarning jismoniy, ruhiy va texnik holatini har tomonlama o‘rganishga qaratilgan. Bu bosqichning asosiy maqsadi – sportchining morfologik, funksional, psixologik va texnik-taktik holatini baholash orqali individual ehtiyojlarini aniqlash va keyingi bosqichlarga aniq diagnostik ma’lumotlar bilan yo‘l ochishdir. Ushbu bosqichda sportchining jismoniy holati baholanadi va olingan ma’lumotlar asosida mashg‘ulot yuklamalari moslashtiriladi. Rejalashtirish bosqichi-bu sportchining avvalgi tahlillar asosida individual tayyorgarlik dasturini ishlab chiqish bosqichidir. Maqsad — sportchini aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan holda, bosqichma-bosqich tayyorlashni ta’minlashdir. Rejalashtirishda sportchining individual xususiyatlariga mos mashg‘ulot uslublari tanlanadi. Mashg‘ulot bosqichi — rejalashtirilgan tayyorgarlik dasturlarini bevosita amaliyotda bajarish bosqichidir. Maqsad — sportchining musobaqaga maksimal tayyorgarlik holatiga erishishini ta’minlashdir. Mashg‘ulotlarda individual yondashuv tamoyili qat’iy qo‘llaniladi. Nazorat qilish bosqichi — sportchining texnik-taktik, jismoniy, psixologik va sog‘liq holati bo‘yicha olib borilayotgan tayyorgarlikning samaradorligini baholash bosqichidir. Bu bosqich murabbiy uchun faqat natijani emas, balki sportchining tayyorgarlik jarayoniga qanday javob berayotganini kuzatish, aniqlik kiritish va kerak bo‘lsa o‘zgarishlar kiritish imkonini beradi. Nazorat doimiy monitoring orqali tayyorgarlikning maqsadga muvofiqligini ta’minlaydi va sportchining jarohatsiz, samarali rivojlanishini nazoratda ushlab turadi.

Belbog‘li kurashchi talabalarning mashg‘ulot jarayoni ko‘p yillik va har bir mashg‘ulot takomillashtirish xususiyatiga ega bo‘lishi lozim. Har bir mashg‘ulot ta’siri oldingi mashg‘ulot iziga ustma-ust tushishi lozim, bunda oldingi mashg‘ulotlarda kurashchi organizmida yuzaga kelgan ijobiy o‘zgarishlar mustahkamlanib takomillashadi. Biz belbog‘li kurashchi talabalarning texnik-taktik tayyorgarligi takomillashtirishda ularni musobaqalarga yuqori darajadagi sport formasiga erishishini ta’minlash maqsadida belbog‘li kurashchi talabalarning yillik tayyorgarlik siklini uch davrga o‘tish davri, tayyorgarlik davri va musobaqa davriga ajrat holda amalga oshirdik. (5-rasmga qarang).



5-rasm. Mezosikl bloklari kombinatsiyasi orqali belbog‘li kurashchi talabalarni texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish uslubiyati

Shuningdek belbogʻli kurashchi talabalarning yillik tayyorgarlik davrlarini 3 ta mezosikl bloklariga ajratdik; tortuvchi mezosikl bloki, bazaviy mezosikl bloki, musobaqa oldi mezosikli bloki. Har bitta mezosikl bloki oʻzining tuzilishi boʻyicha mikrosikllardan tashkil topgan.

Tayyorgarlikning mezosikl bloklari kombinatsiyasi orqali belbogʻli kurashchi talabalarni texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish uslubiyatiga koʻra har bir blokda belgilangan tayyorgarlik jarayoni amalga oshiriladi. Tortuvchi mezosikl blokida belbogʻli kurashchi talabalarning jismoniy tayyorgarligini erishilgan koʻrsatkichlari saqlab turiladi va takomillashtiriladi. Bazaviy mezosikl bloki ushbu blokning maqsadi belbogʻli kurashchi talabalarning texnik-taktik va maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish boʻlib, bu tortuvchi mezosikl bloki asosida toʻplangan qobiliyatlarni takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Sherik bilan texnik usullar bajarish, kurash manekenini yuqori tempda tashlash, sport rezinasida yuqori intensivlikda texnik usullarni bajarish, bellashuv, qarshi hujum va kombinatsion harakatlar bajariladi. Musobaqaoldi mezosikl bloki ushbu blokning maqsadi umumiy tayyorgarlik bosqichining strategik yoʻnalishi bilan uygʻun holda, belbogʻli kurashchi talabalarning musobaqalarda yuqori natijalarga erishishini taʼminlashdan iborat. Ushbu blokning oʻziga xosligi shundaki, yuklama hajmi pasaytiriladi, lekin bajariladigan mashqlar intensivligi yuqori boʻladi. Asosan musobaqaga yaqinlashtirilgan mashqlar qoʻllanadi. Mezosikl bloklari asosida belbogʻli kurashchi talabalarning yillik tayyorgarlik jarayoni samarali tashkil etiladi. Ushbu tizim orqali sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, texnik-taktik mahorati va musobaqaga tayyorgarlik jarayoni ilmiy asoslangan holda rejalashtiriladi. Yil davomida yuklamalarning toʻgʻri taqsimlanishi sportchilarning musobaqalarga eng yuqori jismoniy va texnik tayyorgarlik ega boʻlishini taʼminlaydi. Mezosikl bloklari asosida tuzilgan mashgʻulot tizimi belbogʻli kurashchi talabalarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini ham oshirishga xizmat qiladi.

Xulosalarga koʻra belbogʻli kurashchi talabalarning tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil etish uchun nazariy-amaliy asoslar chuqur oʻrganilishi zarur. Texnik harakatlarni tahlil qilish, mavsumiy bosqichlarga asoslangan tayyorgarlik strategiyasini shakllantirish va individual mashgʻulot dasturlarini tuzish texnik mahoratni takomillashtirishga xizmat qiladi. Belbogʻli kurashchilarning texnik-taktik faoliyatini mukammal darajada shakllantirishda jismoniy tayyorgarlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Belbogʻli kurashchi talabalarning musobaqaviy muvaffaqiyatlari ularning texnik-taktik tayyorgarlik darajasi va bu tayyorgarlikni takomillashtirishga qaratilgan aniq rejalashtirilgan mashgʻulot tizimiga bevosita bogʻliqdir. Biz tomonimizdan taklif etilgan mikrosikl va mezosikl asosidagi mashgʻulot tuzilmasi sportchining individual jismoniy, psixologik va texnik holatiga moslashtirilgan boʻlib, yuklama, tiklanish, intensivlik va texnik takomillashtirishni oʻzaro uygʻunlashtirishni taʼminlaydi.

Dissertatsiyaning **Belbogʻli kurashchi talabalarning texnik-taktik tayyorgarligini pedagogik tajriba davomida takomillashtirish samaradorligi** deb nomlangan toʻrtinchi bobida nazorat va tajriba guruhidagi belbogʻli kurashchi

talabalarining jismoniy tayyorgarlik hamda texnik-taktik tayyorgarligi ko'rsatkichlarida qayd etilgan ijobiy o'zgarishlar asosida ishlab chiqilgan mashg'ulot tizimining samaradorligi chuqur ilmiy-statistik tahlil etilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Turli vazn toifasiga mansub belbog'li kurashchi talabalarini jismoniy tayyorgarligini dinamikasining mashg'ulotlar ta'sirida o'sish sur'ati (n=60)


Testlar	Guruh	Tadqiqot boshida			Tadqiqot oxirida			AO'	NO'	t	P
		\bar{X}	σ	V %	\bar{X}	σ	V %				
Yengil vazn (57-68kg)											
15 soniya davomida balandlikka sakrash soni (marta)	NG	9,04	1,32	14,60	9,77	1,42	14,53	0,73	8,08	2,06	<0,05
	TG	8,79	1,40	15,93	10,48	1,58	15,11	1,69	19,23	4,38	<0,001
Turnikda tortilishlar soni (marta)	NG	14,33	1,80	12,56	15,34	1,91	12,45	1,01	7,05	2,11	<0,05
	TG	14,54	2,29	15,75	17,12	2,59	15,13	2,58	17,74	4,09	<0,001
Qo'shpoyada tayanib, qo'llarni max marta bukish – yozish (marta)	NG	20,70	3,04	14,69	22,41	3,24	14,46	1,71	8,26	2,11	<0,05
	TG	20,20	3,43	16,98	23,75	3,84	16,17	3,55	17,57	3,78	<0,001
10 soniya davomida polga tayangan holda qo'llarni bukib, yozish soni (marta)	NG	11,61	1,81	15,59	12,46	1,93	15,49	0,85	7,32	1,76	>0,05
	TG	11,43	1,94	16,97	13,14	2,12	16,13	1,71	14,96	3,26	<0,01
O'rta vazn (75-82kg)											
15 soniya davomida balandlikka sakrash soni (marta)	NG	8,13	1,11	13,65	8,65	1,17	13,53	0,52	6,40	1,77	>0,05
	TG	7,94	1,19	14,99	9,37	1,33	14,19	1,43	18,01	4,39	<0,001
Turnikda tortilishlar soni (marta)	NG	12,28	1,91	15,55	13,37	2,07	15,48	1,09	8,88	2,12	<0,05
	TG	12,51	2,00	15,99	14,71	2,23	15,16	2,2	17,59	4,02	<0,001
Qo'shpoyada tayanib, qo'llarni max marta bukish – yozish (marta)	NG	18,54	2,72	14,67	20,04	2,91	14,52	1,5	8,09	2,06	<0,05
	TG	18,31	2,92	15,95	21,52	3,25	15,10	3,21	17,53	4,02	<0,001
10 soniya davomida polga tayangan holda qo'llarni bukib, yozish soni (marta)	NG	10,33	1,51	14,62	11,17	1,62	14,50	0,84	8,13	2,08	<0,05
	TG	10,11	1,71	16,91	11,68	1,88	16,10	1,57	15,53	3,38	<0,01
Og'ir vazn (90-100kg)											
15 soniya davomida balandlikka sakrash soni (marta)	NG	7,43	1,09	14,67	7,94	1,15	14,48	0,51	6,86	1,76	>0,05
	TG	7,24	1,15	15,88	8,56	1,30	15,14	1,32	18,23	4,17	<0,001
Turnikda tortilishlar soni (marta)	NG	10,45	1,53	14,64	11,29	1,63	14,44	0,84	8,04	2,06	<0,05
	TG	10,27	1,74	16,94	12,03	1,94	16,12	1,76	17,16	3,70	<0,001
Qo'shpoyada tayanib, qo'llarni max marta bukish – yozish (marta)	NG	15,92	2,49	15,64	17,08	2,63	15,40	1,16	7,29	1,75	>0,05
	TG	15,73	2,51	15,96	18,42	2,78	15,09	2,69	17,10	3,93	<0,001
10 soniya davomida polga tayangan holda qo'llarni bukib, yozish soni (marta)	NG	9,45	1,39	14,71	10,23	1,48	14,47	0,78	8,25	2,10	<0,05
	TG	9,64	1,54	15,98	11,05	1,67	15,11	1,41	14,63	3,40	<0,01

Izoh: AO-absolyut o'sish, NO'-nisbiy o'sish (foizlarda).

Natijalar shuni ko'rsatadiki, takomillashtirilgan mashg'ulot uslubiyatining qo'llanilishi belbog'li kurashchi talabalarining tezkorlik, kuch, chidamlilik, muvozanat va koordinatsion qobiliyatlari hamda texnik-taktik komponentlari takomillashtirishda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan. Ayniqsa, tajriba guruhi sportchilarida test ko'rsatkichlarining statistik ahamiyatga ega yaxshilangani, nazorat guruhida esa bu o'zgarishlarning ishonchli darajaga yetmaganligi metodik yondashuvlar o'rtasida sezilarli farq borligini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan texnik usullarni takomillashtirish modeli hamda mashg'ulotlarni mezosikl bloklari orqali tashkil qilish uslubiyati orqali belbog'li kurashchi talabalarining jismoniy tayyorgarligi hamda texnik-taktik komponentlari takomillashgan.

15 soniyada balandlikka sakrash mashqini nazorat guruhida yengil vazn toifasidagi belbog'li kurashchilar tadqiqot boshida 9,04 marta, tadqiqot oxirida 9,77 marta ko'paygan, tajriba boshidagi natijalardan 0,73 taga yaxshilangan. O'rta vazndagi belbog'li kurashchi talabalarda balandlikka sakrashlar soni 8,13 tadan 8,65 taga (farq 0,52), og'ir vaznda esa 7,43 tadan 7,24 tagacha (farq 0,19) yaxshilangan. Biroq, o'zgarishlar minimal bo'lib, bu nazorat guruhidagi mashg'ulotlar yetarli darajada samarali bo'lmaganini anglatadi.

